

**“Biz hayotni tanlaymiz!” shiori ostida videoroliklar tanlovini  
tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom ijodkor yoshlar o‘rtasida “Biz hayotni tanlaymiz!” shiori ostida giyohvandlikka qarshi kurashish yo‘nalishidagi videoroliklar tanlovini (*keyingi o‘rinlarda – tanlov*) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi (*keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz*) tomonidan o‘tkaziladi.

3. Tanlovda giyohvandlikning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib beruvchi eng yaxshi videoroliklar aniqlanadi.

**II. Tanlov maqsadlari**

4. Tanlov aholida, ayniqsa yoshlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni va unga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, ularni ushbu illatning salbiy oqibatlaridan xabardor etish maqsadida o‘tkaziladi.

**III. Tanlov mavzusi**

5. Tanlov giyohvandlikka qarshi kurashish mavzusida tashkil etiladi. Muallif giyohvandlik salbiy illat ekanligini va uning ayanchli oqibatlarini videorolikda yoritib berishi kerak.

**IV. Tanlov ishtirokchiları**

6. Tanlov yoshlar (*18 yoshdan 30 yoshgacha*) o‘rtasida o‘tkaziladi.

7. Tanlovda videorolik uchun mas’ul shaxs ko‘rsatilgan holda ham yakka, ham jamoaviy ishlar qabul qilinadi.

**V. Tanloving texnik shartlari**

8. Tanlov mavzusiga mos ravishda har qanday suratga olish vositalari yordamida suratga olingan (yaratilgan) videoroliklar tanlov uchun taqdim etiladi.

9. Videoroliklarga qo‘yiladigan talablar:

- formati: AVI yoki MPEG-4;
- parametrlari: sifati eng kamida 1 080 p;
- davomiyligi: 2 daqiqa.

10. Asarlarda uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid bo‘lgan ma’lumotlar bo‘lmasligi lozim.

**VI. Baholash mezoni**

11. Tanlovga taqdim etilgan videoroliklar hakamlar hay’ati tomonidan quyidagi mezonlarga asosan baholanadi:

- e’lon qilingan mavzuga muvofiqligi;

- ijodiy yondashilganligi (*g‘oyaning yangiligi, originalligi*);
- estetik fazilatlar.

## **VII. Tashkiliy qo‘mita va tanlov hay’ati**

12. Tanloving Tashkiliy qo‘mitasi Milliy markaz direktori (*rais*) va bo‘lim boshliqlaridan tashkil topib, ular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- tanlov to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida e’lon berish;
- ishtirokchilarning anketalari va videoroliklarini yig‘ish;
- tanlovga taqdim etilgan ishlarni plagiarism uchun tekshirish;
- tanlov tartibi va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- tanlov yakuni bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash marosimi o‘tkazish.

13. Tanlovga taqdim etilgan ishlarni baholash uchun Milliy markaz direktori o‘rnbosari raisligida quyidagi vazirliklar, idoralar va oliv ta’lim muassasasi vakillaridan iborat tarkibda hakamlar hay’ati tuziladi:

- Sog‘liqni saqlash vazirligi;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
- Ichki ishlar vazirligi;
- Bojxona qo‘mitasi;
- Kinematografiya agentligi;
- O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi;
- O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasi;
- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

14. Tashkiliy qo‘mita muallifni xabardor etmasdan va unga qo‘shimcha haq to‘lamasdan, har qaysi videorolikni to‘liq yoki qisman namoyish etishi mumkin.

## **VIII. Tanlov o‘tkazish tartibi va shartlari**

15. Tanlov ishlari 2025-yil 1-fevraldan 1-maygacha qabul qilinadi. Tanlov yakuniy sanasidan kech topshirilgan ishlar tanlovda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

16. Ishtirokchilarning tanlovga anketa va videoroliklarni taqdim etishlari ularning tanlov shartlariga rozi ekanliklarini bildiradi.

17. Tashkiliy qo‘mita mazkur Nizomning 8-10-bandlarida ko‘rsatilgan tanloving texnik shartlariga javob bermaydigan videoroliklarni ko‘rib chiqmaslik huquqiga ega.

18. Muallif o‘z asarini tanlovga taqdim etishi bilan uni Milliy markazning rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish uchun avtomatik ravishda o‘z roziligini bergen hisoblanadi.

19. G‘oliblarni aniqlash tartibi:

Hakamlar hay’ati anketa va videoroliklarni qabul qilishning yakuniy sanasidan so‘ng 10 kun ichida eng yaxshi videoroliklarni tanlab, ular orasidan 1, 2, 3-o‘rin hamda “Eng yaxshi g‘oya”, “Eng yaxshi operator” va “Eng yaxshi aktyor (aktrisa)” nominatsiyalari g‘oliblarni aniqlaydi.

Bunda, g‘olib va sovrindorlar hakamlar hay’ati raisi va a’zolari tomonidan berilgan ovozlar soniga qarab aniqlanadi. Ular o‘z ovozlarini faqatgina bitta videorolikka berishlari mumkin. Bir vaqtida ikki va undan ortiq videorolikka ovoz berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

20. Tanlovning g‘olib va sovrindorlari quyidagilar bilan taqdirlanadi:
- 1-o‘rin uchun noutbuk;
  - 2-o‘rin uchun planshet;
  - 3-o‘rin uchun smartfon;
  - “Eng yaxshi g‘oya”, “Eng yaxshi operator” va “Eng yaxshi aktyor (aktrisa)” nominatsiyalari g‘oliblari uchun Milliy markazning esdalik sovg‘asi.

### **IX. Anketa va videoroliklarni taqdim etish**

21. Tanlov ishtirokchilari o‘z anketalari va videoroliklarini Milliy markazning tanlov@ncdc.uz elektron pochta manziliga yuboradilar (*mavzu satrida “Biz hayotni tanlaymiz!” nomi albatta bo‘lishi kerak*), shuningdek, elektron vositalarda shaxsan yetkazishlari mumkin.

22. Anketa shakli quyidagicha:

Ishtirokchining fotosurati (3x4)	
To‘liq F.I.Sh. va tug‘ilgan yili	
O‘qish yoki ish joyi ( <i>to‘liq nomi va manzili</i> )	
Uyali telefon raqami	
Uy manzili	
Elektron pochta manzili	

### **X. Yakunlovchi qoidalar**

23. Tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar natijalar e’lon qilingan kundan boshlab bir kun davomida apellyatsiya arizasini berish huquqiga egalar. Apellyatsiya arizasi bir kun ichida ko‘rib chiqiladi.

24. Apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqishda ularning mualliflari ham ishtirok etishlari mumkin.

25. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqib, natiasi bo‘yicha uni qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

26. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.